

MIQDORLARNI O'RGANISH METODIKASIGA UMUMIY TAVSIFNOMA

Atabayeva Gunduz Jummadurdi qizi
Ajiniyoz NDPI Boshlang'ich ta'lif fakulteti
1-kurs talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga miqdorlarini o'rganish metodikasi kichik yoshli o'quvchi yoshlar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *miqdor, hajim, matematika, dastur, arifmetik, ammalar, matematika bilimlar.*

Miqdorlar, xuddi raqamlar kabi boshlang'ich sinflarda matematika mashg'ulotlarinig asosiy tushunchasi bo'lib, bolalarda miqdor haqida predmetlar va voqeylekka aloqador va o'lchov bilan bog'liq sifat tasawur hosil qilish uchun foydalilanadi.' 1-2-sinflarda o'quvchilar uzunlik, massa, (og'irlik) hajm, vaqt haqida va ulaming o'lchov birliklari haqida tasavvurga eg bo'ladilar. Misollami yechish jarayonida ular baho, qiymat, miqdor, narx, tezlik, masofa, unumdonlik tushunchalari bilan tanishadilar Mavzuni o'rganish jarayonida shunga erishish zarurki, o'quvchilar o'zaro bog'liq, ammo mutlaqo boshqa-boshqa, mazmunga ega bo'lgan «miqdor» va «raqam» tushunchalarini aniq farqiga bora olishlari kerak. Masalan, sim o'ramidan bir bo'lak kesib olib, o'lchash birligi detsimetrdan foydalanganib, 1 dm, 2 dm, 3 dm,20 dm kabi uzunliklami belgilab boramiz. Ya'ni mazkur o'lcham birligini sim uzunligi bo'yicha ketma ket qo'yish bilan o'lchaymiz va tegishli nomi bilan - (20 dm) yozib qzo'yamiz Agar boshqa o'lcham birligi, masalan, santimetrdan foydalangan bo'lsa, miqdoming raqam belgisi o'zgacha bo'lganiga erishamiz. Bu raqamni ham tegishli nomi bilan (200 sm) yozib qo'yamiz. Metr o'lcham birligidan foydalansak mazkur miqdoming yana bir raqamli ko'rinishga ega bo'lamic (2 m). Dastlabki bosqichda o'qituvchi (ustoz) o'quvchilar mazkur miqdor haqida qanday tasavvurga ega ekanligi bilan qiziqadi. Bu maqsadga ikkita bir xil rangli, ammo turlicha uzunlikka ega bo'lgan qalamlar olib, o'quvchilarga ulami ta'riflab berishni taklif etadi.O'qituvchi bolalaming javobini yo'naltiruvchi savollar bilan ulaming diqqatini aynan qalamlaming uzunligiga qaratadi, ya'ni ulaming bir uzunroq, ikkinchisi qisqaroq ekanligini, qalamlami bir-biriga taqqoslash yo'li bilan isbotlashga erishadi. O'qituvchi bunday mashqlami yana boshqa predmetlarda, modellar, rasmlarda davom ettirib,o'quvchilarda har bir predmet uchun zaruriy bo'lgan sifat – uzunlik bo'lishini, ulami bir-biriga taqqoslash yo'li bilan va chamalash yo'li bilan aniqlash mumkinligini tushuntiradi..Turli kesmalami taqqoslash uchun o'lchamlardan foydalinish o'quvchilaming o'lchash jarayoni zaruriyatini anglashga tayyorlaydi.Masalan: doskada uzunliklari 90sm va 120 sm bo'lgan ikki chiziq tortiladi. Bu chiziqlami shunday joylashtirish kerakki, ulaming qay biri uzun va qisqa ekanligini darhol asoslab berish iloji bo'lmasin(ulami taqqoslash iloji yo'q). O'qituvchi o'quvchiga uzunligi 30 sm bo'lgan o'lchamni berib, uning

yordamida chiziqlami bir – biriga taqqoslashni so'raydi. Erishilgan natija 3<4 tufayli shunday xulosaga kelinadiki, chiziqlaming birinchisi ikkinchisidan qisqaroq ekan. Aynan, shunday mashq uzunligi 15 sm bo'lgan o'lcham bilan ham bajariladi. Natija 6<8 tufayli yana ilgarigi yakun – birinchi chiziq ikkinchisidan qisqaroq ekanligi ta'kidlanadi. Keyingi o'quvchiga birinchi o'lchamni ikkinchi chiziqqa ko'yib, ikkinchi o'lchamni esa birinchi chiziqqa qo'yib o'lhashni tavsiya etadi. Boshlang'ich sinflarning dasturida matematik material bilan uzviy bog'liqlikda turli miqdorlarni ham o'rganish nazarda tutilgan. Miqdorlarsiz tabiatni, borliq olamni o'rganish mumkin emas. Chunki miqdorlarda turli narsalarning, borliq dunyoning xossalari aks etgan. Miqdor tushunchasi narsa yoki hodisaning xossasi bo'lib, bu tushunchalar o'quvchilarning butun o'qishi davrida shakllanadi. Biz o'quvchilarga uzunlik, jismning massasi (og'irlilik), hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar to'g'risida tushuncha berishimiz kerak. Bu tushunchalarni o'rganish arifmetik material bilan qo'shib o'qitiladi.

•Xulosa Matematikada o'rganiladigan asosiy tushunchalardan biri miqdor tushunchasidir. Boshlang'ich sinflarda uzo'nlik, jismning massasi va hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar o'rganiladi. Boshlang'ich sinflarda bu miqdorlarni asosiy miqdorlar deyiladi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilari ba'zi hosilaviy miqdorlar (tekis harakat tezligi va boshqalar) bilan ham tanishadilar. Hosilaviy miqdorlarni o'rganishda ularni o'lhash masalasi o'rganilmaydi. Miqdorlarni o'rganish metodikasiga umumiy tavsifnomasi Miqdorlar, xuddi raqamlar kabi boshlang'ich sinflarda matematika mashg'ulotlarinig asosiy tushunchasi bo'lib, bolalarda miqdor haqida predmetlar va voqeylekka aloqador va o'lchov bilan bog'liq sifat tasavvur hosil qilish uchun foydalaniladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfmi kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. "Academic research in educational sciences", 2(9), 886-889. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889>
2. T o s h k e n t - « F a n v a t e x n o l o g i y a » - 2 0 0 5
3. Jumayev Mamanazar Ergashevich .
4. Tadjiyeva zumrat.